O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

177.3 : 323.1

Yunus XOLIQOV,
Professor, DSc, Samarqand davlat chet tillar institute, Samarqand, O‘zbekiston
E-mail: xolikovyunus88@gmail.com

Professor O.G‘aybullayev taqrizi asosida

MILLATLARARO MADANIYAT VA BAG‘RIKENGLIKNI AXLOQIY MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugun zamonaviy dunyoda ko‘p madaniyatlilik, madaniyatlar xilma-xilligi tushunchalari kengayib bormoqda. Turli xil madaniyatlarning mavjudligi mamlakatimiz yoshlarining turli madaniyatlardan xabardor bo‘lishi bilan birgalikda ma’naviy axloqiy dunyoqarashlari ham kengayib borishiga zamin yaratishi tadqiq qilingan. Shuningdek, yoshlarimizning turli xil jamiyatlarga moslashishida qiyinchilik tug‘ilmaydi. Bunday xilma–xillik jamiyatida istiqomat qilayotgan yoshlar ongida millatlararo madaniyatni yuksaltirish davr talabiga aylanib borayotganligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, mehmondo‘stlik, urf-odatlar, ziyo, axloq, milliy, qadriyat, dunyoqarash, mafkura, bag‘rikenglik, madaniyat, did, ijtimoiy, norma, ma’rifat, mentalitet, milliy qadriyat, millat, elat, ong, kuch-qudrat, imperiya.

ЭТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ПРОДВИЖЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ КУЛЬТУРЫ И ТОЛЕРАНТНОСТИ

Аннотация

В данной статье в современном мире расширяются понятия мультикультурализма и многообразия культур. Исследовано, что наличие разных культур создает основу для расширения духовно-нравственного мировоззрения молодежи нашей страны, наряду с осознанием разных культур. Кроме того, нашей молодежи нетрудно адаптироваться к разным обществам. Выявлено, что в сознании молодежи, живущей в столь многообразном обществе, продвижение межэтнической культуры становится требованием времени.

Ключевые слова: Духовность, гостеприимство, традиции, интеллект, мораль, национальный, ценности, мировоззрение, идеология, толерантность, культура, вкус, социальное, норма, просвещение, менталитет, национальная ценность, нация, народ, разум, власть, империя.

ETHICAL ISSUES OF PROMOTING INTERNATIONAL CULTURE AND TOLERANCE

Annotation

In this article, the concepts of multiculturalism and diversity of cultures are expanding in the modern world today. It has been researched that the presence of different cultures creates the basis for the expansion of the spiritual and moral worldviews of the youth of our country, along with the awareness of different cultures. Also, it is not difficult for our youth to adapt to different societies. It has been revealed that in the minds of young people living in such a diverse society, the promotion of inter-ethnic culture is becoming a demand of the times.

Key words: Spirituality, hospitality, traditions, intelligence, morality, national, value, worldview, ideology, tolerance, culture, taste, social, norm, enlightenment, mentality, national value, nation, people, mind, power, empire.

Kirish. Millatlararo madaniyatni rivojlantirishda shaxslararo axloqiy bag‘rikenglik madaniyatini ma’rifatparvarlik, insonparvarlik tamoyillari asosida hurmat qilish, shuningdek, ularni qabul qilish davlat strategik taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Jamiyat ko‘p millatli ekan, ular orasida bahamjihatlikni o‘stirish, totuvlikni ta’minlash, bu yo‘lda o‘ziga xos ustuvor yo‘nalishlarni belgilab chiqish va tinimsiz mehnat qilish, yurtimizning kelajagini ta’minlashda, rivojini belgilashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu yo‘lda yurtboshimiz boshchilgida, kelajagimiz avlodlarini har taraflama bilimli, uzoqni ko‘ra biladigan, eng asosiysi, barcha sohada yakdil, yetakchi bo‘lish kabi hislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan yetuk kadr etib tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatayotgani quvonarli hol, albatta[1]. Shu sababli fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda o‘zga madaniyatni hurmat qilishlikni rivojlantirish, madaniyatlararo bir-birlarini tushunish, qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va ular ongiga singdirish bilan bog‘liq tadqiqotlar muhim hisoblanmoqda.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning millatlararo madaniyatga ta’siri natijasida xalqaro darajadagi turli millat vakillarining “Madaniyat kunlari” tashkil etilishi diqqatga sazovordir. Davlat tomonidan har bir millat vakilining qonun doirasida himoyalanishi, o‘z madaniyatini axloqiy tamoyillar asosida erkin namoyish etishi, boshqa milllatlarga bag‘rikeng bo‘lishi uzluksiz ravishda amal qiladi. Shundagina jamiyatning yangi qiyofasi, fuqarolarining zamonaviy imidji shakkllanadi va undagi turli millatlar madaniyatlari boyib boradi.

Ko‘p millatli respublikaning ko‘p madaniyatlilik darajasini aniqlash zarurdir. Bu shaxsning ichki va tashqi dunyosi bir butun olam bilan birlashuvida millatlararo madaniyat va bag‘rikenglik go‘yoki birlashtiruvchi omil rolini o‘ynaydi. Binobarin, uning axloqiy qarashlari va amallari shu dunyoqarashga muvofiq yo‘nalish oladi. Jamiyatning har bir a’zosi o‘zining hayot yo‘lini belgilashida birinchi galda, axloqiy tamoyillarning qadriyatlar tizimidagi roli bilan o‘lchanadi, so‘ngra uning ijtimoiy maqomi, bag‘rikenglik me’yorlariga qay darajada mosligiga e’tibor qaratiladi.

Millatlararo madaniyat xalqlar madaniy ehtiyojlarini ta’minlashi bilan birga ularni monitoring qilib borishni va zarur bo‘lganda qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Mazkur masalalarning ijobiy yechim topishi

ijtimoiy hayotda kechadigan jarayonlarni tahlil qilish, ziddiyatli vaziyatlar paydo bo‘lgan hollarda uni bartaraf etish imkonini beradi. Yurtimizning brinchi Prezidenti XXI asrda inson ongi va tafakkuri uchun kurash ketayotgan bir davrda: “O‘zbek xalqi ruhining tiklanganligi, millat ma’naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik ruhiyatiga, xulq-atvor falsafasiga ega bo‘lmoqdalar”[3], –deydi.

Millatlararo bag‘rikenglik madaniyati, diniy va axloqiy bag‘rikenglik madaniyatining tutgan roliga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar, simpoziumlar, ko‘rgazmalar va boshqa ko‘plab tadbirlar mamlakatimizda tashkil etilmoqda. Jumladan, “2019-yil 25-avgustda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida “O‘zbekiston – Buyuk yo‘llar va sivilizatsiyalar chorrahasi: imperiyalar, dinlar, madaniyatlar” madaniy meros haftaligi doirasida “Asrlar qa’ridan taralayotgan ziyo” mavzusida islomshunos olimlarning xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi”[4; 3-B.]. Bundan tashqari yoshlarda axloqiy bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish borasida uzluksiz ma’naviy islohotlar amalga oshirilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Bunday samarali va kelajakni o‘ylab qilingan islohotlardan mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir xalqning bir tan-u bir jon bo‘lishiga turtki beradi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda yoshlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, ularda axloqiy bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarning ta’sirini oshirish ishlari izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Joylarda yoshlarimizga tahdid solishi mumkin bo‘lgan intolerant xarakterdagi tahdidlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda davlat organlari va fuqarolarning ogohligini oshirish davr talabiga aylanmoqda. Tadqiqotchi D.Ernazarovning fikricha, “Xalqaro press-klub faoliyatida va shu bilan birgalikda yoshlarning intellektual salohiyati va axloqiy bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan maqolalar, tok-shoular, ijtimoiy roliklar, ko‘rsatuvlar, publististik chiqishlar va eshittirishlar tashkil qilish maqsadga muvofiq”[5]. Bunda olimlar, ziyolilar, mutaxassislar hamda yoshlarning ishtirok etishi ishlar samaradorligini yanada oshiradi.

Axloqiy tarbiya ham yuqorida ta’kidlaganimizdek, inson bolasi dunyoga kelgan kundan boshlab beriladigan tarbiya jarayonidir. Bu tarbiya yoshlarni jamiyatga nisbatan, turli insonlarga nisbatan hurmatni shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Ijtimoiy-ma’naviy hayotimizda sodir bo‘layotgan hodisalar bugungi kunda axloqiy tarbiya jarayonini takomillashtirishdek muhim vazifalarni qo‘ymoqda.

Bu jarayonda axloqiy tarbiya o‘z oldiga yosh avlodning axloqiy madaniyatini yuksaltirishda badiiy-estetik did yoki san’atning roli juda muhimdir. “Badiiy-estetik did bilan insonlarning hayotga qiziqishini oshirish, ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirish, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga yordam berish, haqiqatan ham, muhimdir”[6]. Bu esa yoshlarning dunyoqarashini erkin fikrga ega bilan bo‘lgan, uning ma’nolari va qarashlari bilan bog‘liq masalalar va muammolarni yechishda o‘z fikrini erkin ifodalashini ta’minlaydi. Bu ko‘nikmalar yosh avlodning ijtimoiy va shaxsiy rivojini ta’minlaydi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning fikricha, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna solayotgan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”[7]. Bunga erishishning yo‘li davlat boshqaruvida turli millat vakillarining faol qatnashishidir.

Bugungi davrda butun dunyoga axborotning misli ko‘rilmagan tarzda tarqalishi asosida madaniyatlar qorishivga olib kelmoqda, bunday holatlarda, albatta insonlarda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish muhim sanalmoqda. Millatlararo madaniyat va bag‘rikenglikning axloqiy tamoyillarini hayotning barcha jabhalarida baynalmilallik fazilatlari bilan bir qatorda dinlararo bag‘rikenglik (tolerantlik) g‘oyalarini ham rivojlanishtirishdan iboratdir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi yuksak ma’naviy qadriyat sifatida azaldan xalqimizning ongu shuurida shakllanib kelgani, u mamlakatimizda kuchli demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosiy tamoyillaridan biri ekkanligi va jamiyatimizda o‘ta muhim ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida fikr bildirar ekanlar, “Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o‘z isbotini topdi” [8; 8-9-B.], deb ta’kidlaydilar.

Tahlil va natijalar. Millatlararo bag‘rikenglik – umuminsoniy jarayon. U barcha insonlarga barobardir. Masalan, ezgulik insonparvarlik, mehr-oqibat, yoshi kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondo‘stlik, qalb saxovati kabi insoniy fazilatlar yana-da erkin namoyon bo‘lmoqda O‘zbekistonda turli millat va elat vakillari farovon yashashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, rus, tojik, turkman, qozoq, qoraqalpoq, arab va boshqa millat va elat vakillari bilan birgalikda ularning turli xil urf-odatlari, qadriyatlari, an’analarini hurmat qilgan holatda tinch, osoyishta va farovon hayot kechirib kelmoqda. Xuddi shuningdek, millatlararo madaniyat ham milliy va umuminsoniy bo‘ladi. Milliy bag‘rikenglik, millatlararo madaniyat tarixiy jarayon sifatida ko‘rishimiz mumkin millatlararo madaniyat bir kunda, yoki bir yilda shakllana olmaydi. O‘rta Osiyoda bag‘rikenglik madaniyatini shakllanishini biz asrlar qariga singib ketgan ma’naviyat va urf odatlarimizda ko‘rishimiz mumkin bo‘lib, ularning bir necha ming yillik ma’naviy qadriyatlar pillapoyalarini bosib o‘tganligini aniqlash bugun uchun o‘ta muhim bo‘lib hisoblanadi. Faylasuf olim I.Jabborovning aytganidek, bu yerda o‘tmish va bugungi kun o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik amal qiladi. Binobarin, “o‘tmish xotirasi ma’naviy va madaniy taraqqiyot uchun muhim omillardan biri bo‘lsa, asrlar davomida to‘planib kelgan tajriba insonning kamol topishida, elat va xalqning tarixiy rivojida eng zarur zamin hisoblanadi”[9; 295-B.]. Darhaqiqat, milliylik, millatlararo madaniyati inson tarixiy tajribasining mahsuli, uning ijtimoiy xotirasining mazmunidir.

Bizningcha, bag‘rikenglikning axloqiy darajalari uch bosqichga bo‘linadi. Birinchidan, quyi daraja bo‘lib, unda har bir shaxsning o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lishi asnosida voqelikdagi axloqning millatlar taqdirida ifodalanishini ko‘rsatadi[10]. Ikkinchidan, o‘rta daraja sifatida jamiyatning muayyan qismini, mahalalardagi ijtimoiy makonni, bir davlatni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Uchinchidan, yuqori daraja bo‘lib, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartiblashtiradi. Xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan axloqiy tamoyillarni namoyon etadi.

Biz yoshlarimizda axloqiy bag‘rikenglik tuyg‘ularini milliy qadriyatlar negizida rivojlantirib borishimiz, ayniqsa, har bir yosh avlodni jamiyatda erkin, tinch-totuvlik asosida, tenglik, adolat, ma’rifat, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi ezgu tuyg‘uilarini yanada yuksaltirishimiz zarur. “Shuning uchun jamiyatimiz hayotida milliy-diniy qadriyatlarimizni tiklash xalqimizning ma’naviy kamolotini tezlashtirish,

odamlar ongi va qalbida milliy mafkurani shakllantirish va mustaqillikni mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi”[11]. Xalqimizning ongida shakllangan axloqiy normalarning bag‘rikenglik qiyofasini zamon bilan hamnafasligini ta’minlash, o‘tmish va hozirgi haqiqatini dialektik yondashish asosida tushunishga o‘rgatish lozim.

Xulosa qilib aytganda axloqiy normalar, insonlar o‘rtasidagi axloqiy qadriyatni o‘stirish va insonlararo aloqalarni inkor etib borishdan iborat. Axloqiy me’yorlarning ijtimoiy normalari haqida so‘z yuritish bilan subektivlikka erishib bo‘lmaydi. Insonlar erkinligi - bag‘rikenglik qadriyatiga yetishi uchun avvalo, axloqiy me’yorni shaklantirish, insonning shaxsiy hayotini hurmat qilish, unga munosib hayot kechirishi uchun birinchi o‘rinda ijtimoiy muhit zarurdir.

Mamlakatda millatlararo madaniyatni shakllantirishda axloqiy qadriyatlar sohasidagi tadqiqotlar doirasini kengaytirishni bugungi kunning o‘zi taqozo etmoqda. Bu borada jahonda har bir xalq o‘zining mustahkam e’tiqodi bilan fuqarolarining iymon erkinligini ta’minlashi, azaliy qadriyatlarini e’zozlashi, dinga nisbatan ijobiy tafakkurini shakllantirishi lozim. Bu yo‘ldan xalqimiz hech qachon ortga qaytmaydi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad-muddaolarini izchillik bilan amalga oshiradi va o‘z dini, qadriyati, iymoni, e’tiqodi va milliy g‘oyasini dunyo xalqlari orasida ulug‘lab boraveradi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир // 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 455.
2. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Тошкент: O‘zbekiston, 2013.
3. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон,1998. –Б. 129.
4. Зиёдов Ш. Асрлар қаъридан таралаётган зиё // Имом Бухорий сабоқлари журнали, 2019 йил, 3-сон, - Б. 3.
5. Ernazarov D. (2020). Толерантность. Центр научных публикаций в Узбекистане,1(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/economics-innotech/article/view/189
6. Современное образование как откры http://ivo.garant.ru
7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. –Б. 28.
8. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 8-9.
9. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 295.
10. Современное образование как откры http://ivo.garant.ru
11. Қамар Амон. Маънавият назарияси ва тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 190.